

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA BOLALARNING PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARIDAN KELIB CHIQQAN HOLDA TA'LIM VA TARBIYA  
JARAYONLARINI TASHKIL QILISH**

**Ergasheva Nilufar Erkin qizi**  
*Osiyo Xalqaro Universiteti magistri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini nazarda tutgan holda ularga ta'lim va tarbiya berish borasida, ularni jamiyatdagi o'rni va bolalar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash doirasida, bolalarni darslarga jab qilish haqida gap boradi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются вопросы обучения и воспитания учащихся младших классов с учетом их психологических особенностей, улучшения их места в обществе и общения между детьми, а также приучения детей к посещению занятий.*

**Abstract:** *This article discusses the issues of training and education of primary school students, taking into account their psychological characteristics, improving their place in society and communication between children, as well as teaching children to attend classes.*

**Kalit so'zlar :** *Psixologiya, boshlang'ich ta'lim, tarbiya, bolalar, muloqot, jamiyat, muhit, jismoniy tarbiya, fan, do'stlar, didaktik o'yinlar, bevosita, bilvosita, test, aloqa, jamoa, qimmatli, yoqimli, individual, sog'lom, xususiyat, xotira, nutq, tafakkur, hissiyot, mehr-muhabbat, Vatan, ingliz tili, rus tili.*

**Ключевые слова:** *Психология, начальное образование, воспитание, дети, общение, общество, среда, физическое воспитание, наука, друзья, дидактические игры, прямой, косвенный, тест, общение, коллектив, ценный, приятный, индивидуальный, здоровый, характер, память, речь, мышление, эмоции, любовь, Родина, английский язык, русский язык.*

**Key words:** *Psychology, primary education, upbringing, children, communication, society, environment, physical education, science, friends, didactic games, direct, indirect, test, communication, team, valuable, pleasant, individual, healthy, character, memory, speech., thinking, emotions, love, Motherland, English, Russian.*

Ta'limning psixologik asosiy muammosi ko'p masalalarni qamrab oladi. Ta'limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga tayanadi. Birinchi navbatda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga bo'lgan munosabatiga to'xtaladigan bo'lsak, bu munosabat his- tuyg'ulari va irodasi bilan tutgan yo'li bilan uning qiziqishlari bilan bog'liq.

Har bir inson avvalam bor boshqalarni ta'rbiyalashdan oldin o'zini tarbiyalashi kerak. Chunki inson o'zi tarbiyali bo'lmasa u boshqalarga qanday qilib ta'lim – tarbiya berishi mumkin. Har bir sohada ayniqsa bolalar bilan ishlashda ularning psixologik

xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga ta'lim va tarbiya berish lozim. Biz bilamizki har bir boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga qadam qo'ydiki ular uchun yangi dunyo eshiklari ochiladi va yangicha muhit, yangi do'stlar va eng asosiysi uning o'qituvchisi bo'ladi. Bola uchun o'qituvchisiga mehr uyg'onadi ya'ni uning har bir gapi qonun, har qanday gapi rost, boshqalar nima desa ham o'qituvchisi u uchun najot va ishonch manbai hisoblanadi.

Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarni oq qog'ozga o'xshatamiz chunki unga nimani yozsak va qanday yozsak shunday o'qiyimiz. Demak bolalarga ta'lim berish bilan bir qatorda unga tarbiya ham berib ketishimiz lozim. Boshlang'ich ta'lim sinflarida 20-25 hattoki 40 tagacha o'quvchilar o'qishadi albatta bitta sinfda bundan ko'rinib turibiki o'qituvchi 40 ta bola psixologiyasini o'rganib unga shu darajada ta'lim – tarbiya berishi kerak.

SHunday bolalarimiz bor bir aytganda tushuna oladi, lekin shunday bolalar bor 3-4 martada tushuna oladi. Har bir bolada qobiliyat berilgan va biz bu qobiliyatlarini ko'rib bilgan holda ularga tushuntirishga harakat qilishimiz kerak. Turli xil metodlar, didaktik o'yinlar, aqlni charxlash uchun mashlar, jismoniy mashqlar, yordamida bolalarni darslarga qiziqishini oshirib borishimiz kerak. Boshlang'ich ta'lim bolalarining nutq, xotira, tafakkur, hissiyot, ichonchlilik, ruhiyati, qiziquvchanligi, qobiliyat, iqtidori, ma'suliyat jihatlarini obdon o'rganishimiz kerak. Har doim darsni boshlamasdan oldin bolalar bilan salomlashib ularning qiziqishlari haqida bilib olishimiz kerak. Sinfdagi barcha bolalar ham matematika yoki ona tili fanlariga qiziqishmaydi. Ba'zi bolalarga ingliz tili rus tili, jismoniy tarbiya yoki musiqa fanlari yoqishi mumkin. Albatta bola yoqtirgan fanida uni ko'proq ma'lumotlar bilan yoqtirgan fani bo'yicha savollar berib uning e'tibori torta olish kerak shundagina bolada boshqa fanlarga ham qiziqish uyg'onadi. Masalan bolalarning ko'pchiligi jismoning tarbiya fanini yoqtirishadi, nega ? chunki bu fan ham aqlan, ham jismonan, ham jamoa bo'lib ishlash uchun juda qulay foydali fan hisoblanadi. Bola bu fanda sog'lomlashadi, bolalar bilan birgalikdagi o'yinlar ularni o'rtasidagi raqobatni yoqotadi, axil bo'lishga o'rgatadi, aqlan fikrlashga undaydi, emotsiyasini oshiradi, xursand qiladi, va dars minutlari qanday qilib tugab qolganini ham bilishmaydi. Albatta bu fanda har bir bolaning psixolik hamda jismonan sog'lomligidan kelib chiqqan holda mashlar va o'yinlarni tashkil qilish kerak.

O'quvchilarda jismoniy ta'rbiya fani Vatanga bo'lgan mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash, Vatanga bo'lgan sadoqatini shakllantirishga yordan beradi.

Albatta biz tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyatida tegmasdan, unga zarar yetkazmasdan, soda gaplar bilan tarbiyalashimiz kerak. Uning xatolarini barcha bolalar oldida aytmasligimiz kerak. Darsdan keyin yoki tanafusda u bilan xatosi to'g'risida tushuntirib unga to'g'ri yo'l ko'rsatish lozim. Uning ota – onasi bilan doimiy aloqada bo'lib turishimiz kerak chunki uydagi muhit bilan maktab muhiti to'g'ri kelmaydi. Bolalardan har xil tirdagi psixologik testlar olib turib uning ichki dunyosi

haqida fikrlashlari nimani xoxlashini ham bilib olishimiz mumkin. Bolani urish yoki uni barcha bolalar orasida kamsitish uning psixikasiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Biz albatta birinchi navbatda Bolani eshitishni o'rganishimiz kerak.

Har qanday jarayonlar va har qanday darslar bor. Biz bilamizki maktablarda jismoniy tarbiya fani haftada ikki soat o'tilar edi. Endilikda esa haftada bir soat qilib belgilandi. Bu fan bola psixologiyasiga qanday ta'sir qiladi deysizmi ? albatta ta'sir qiladi. CHunki birinchi sinf bolasi xali maktabga va o'z sinfdoshlariga moslashmagan bo'ladi. Bu fanda biz bilamizki turli xil jamoaviy o'yinlar ko'plab o'ynaladi va bolalarni bir – birlariga bo'lgan munosabatlari va mehr – muhabbatlari o'rtadagi nizolar ya'ni do'stlik irishtalarini bog'lash uchun kerakli mashg'ulot. Birinchi sinf bolalarini ikki guruhga bo'lib o'yinlarni o'ynata olmaymiz. Biz sinfda guruhlar tashkil qildikmi demak orada nizolar kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Bir ularni o'zaro hamjihatlikka o'rgatsak keying sinflarida guruh bo'lib shakllantirsak ham ularga ta'sir qilmaydi.

Biz bilamizki psixologiyada ta'limga qiziqish ikki usulga o'rganiladi. Birinchisi bevosita va ikkinchisi bilvosita. Barcha o'qituvchilar o'zining faniga bilvosita qiziqtirishga harakat qiladilar. Har bir o'quvchi qiziqishi tufayli fanga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi. Biz bilamizki psixologiyada qiziqish bu- insonning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyam narsa yoki hodisa hisoblanadi. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Har bir inson o'zi qiziqqan fanni qunt bilan o'qiydi va o'rganadi u uchun shu va shu fan qiziq hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda muayyam maqsadni ko'zlab ish tutish kerak. Qiyinchiliklarni yengib olishda, darsdan chalg'itadigan narsalar bilan chag'itmaslikda, bolada ishtiyok tarkib topib faollashishida bular barchasi ta'lim larayonoda alohida ahamiyatga ega.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
- 2.Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara, 5.
- 3.Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.
- 4.Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
- 5.Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1), 20-27.

6.Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).

7.Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).

8.Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.

9. G.ANORQULOVA, A. KARIMOV. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. *Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnal*. 2017- yil 3- son.